

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**VOHIDOV MIRABROR XUSAN O'G'LI**

**LOKOMOTIVLARNING O'ZGARUVCHAN TOK TORTUV ELEKTR  
DVIGATELLARINI SUN'IY NEYRON TARMOQLARINI QO'LLASH  
ORQALI TEXNIK HOLATINI BAHOLASH**

**05.08.06 – Temir yo'llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish  
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Тошкент – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on technical sciences**

**Vohidov Mirabror Xusan o'g'li**

Lokomotivlarning o'zgaruvchan tok tortuv elektr dvigatellarini sun'iy neyron tarmoqlarini qo'llash orqali texnik holatini baholash.....3

**Вохидов Мираброр Хусан угли**

Оценка технического состояния тяговых электродвигателей переменного тока локомотивов с применением искусственных нейронных сетей.....21

**Vokhidov Mirabror Xusan ogli**

Assessment of the technical condition of alternating current traction electric motors of locomotives using artificial neural networks.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....44

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**VOHIDOV MIRABROR XUSAN O'G'LI**

**LOKOMOTIVLARNING O'ZGARUVCHAN TOK TORTUV ELEKTR  
DVIGATELLARINI SUN'IY NEYRON TARMOQLARINI QO'LLASH  
ORQALI TEXNIK HOLATINI BAHOLASH**

**05.08.06 – Temir yo'llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish  
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Тошкент – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5738 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xamidov Otabek Rustamovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:**

**Pirmatov Nurali Berdiyorovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Kurilkin Dmitriy Nikolayevich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat texnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lchilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: [tashiit\\_rektorat@mail.ru](mailto:tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lchilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**R.V. Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**Ya.O. Ruzmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**R.M. Mirsaatov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi hamda temir yo‘l transportida qo‘llaniladigan asinxron tortuv elektr dvigatellarining ishonchligi va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy diagnostika usullarini joriy etish orqali texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, lokomotivlar umumiy nosozliklarining 20–25% asinxron tortuv elektr dvigatellariga to‘g‘ri kelishi aniqlangan. Bu borada, jumladan lokomotivlardan foydalanishda ta‘mirlash xarajatlarini optimallashtirish, harakat xavfsizligini ta‘minlash hamda elektr dvigatellarining ishonchligi va ekspluatatsion samaradorligini oshirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Mazkur muammolarni hal etishda, asinxron tortuv elektr dvigatellarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ularning texnik holatini baholash bo‘yicha diagnostika usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda temir yo‘l transportidan samarali foydalanish maqsadida nazariy hisob-kitoblar, tajriba-sinov tadqiqotlarining zamonaviy usullarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirish bo‘yicha turli ilmiy texnikaviy yechimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, lokomotivlarning asinxron tortuv elektr dvigatellari ish samaradorligini oshirishda sun‘iy intellektga asoslangan intellektual texnologiyalarni qo‘llash orqali foydali ish koeffitsiyentini oshirish, elektrodinamik va elektromexanik tavsiflarini yaxshilash hamda matematik modellashtirish asosida texnik holatini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, tortuv elektr dvigatellarining magnit maydon ko‘rsatkichlarining nuqsonlarga bog‘liqligini o‘rganish, foydalanish samaradorligini oshirish hamda ularning elektrodinamik va elektromexanik tavsiflarini sun‘iy idrokni joriy etgan holda texnik holatini baholash usullari dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda turli transport sohalarini rivojlantirish, jumladan, temir yo‘l transporti infratuzilmasini takomillashtirish, mavjud lokomotiv parkidan samarali foydalanish, mavjud temir yo‘l uchastkalarini elektrlashtirish va takomillashtirish ishlari bo‘yicha ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish”<sup>1</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish jarayonida zamonaviy elektrovozlar asinxron tortuv elektr dvigatellarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni oldindan aniqlashga xizmat qiladigan hamda ularning diagnostika metodlarini takomillashtirishga qaratilgan yangi usul va texnologiyalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 yanvardagi “Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli farmoni

o'shishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-15-sonli, 2024 yil 24-dekabrda "2025 – 2027 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-454-sonli, 2025 yil 22 yanvardagi "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-20-sonli, 2022 yil 24 yanvardagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-99-sonli va 2023 yil 10 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-sonli va 2025 yil 27 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurs tejamlilik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Temir yo'l transporti o'zgaruvchan o'zgaruvchan tok elektr uzatmali lokomotivlarining asinxron tortuv elektr dvigatellarining yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni hal etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ilmiy markazlar, dunyoning yetakchi davlatlari oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarida olib borilmoqda, shu jumladan Technical University of Ilmenau va Siemens, Siemens va Halke (Germaniya), Sony va Tokyo Technology Institute, Toshiba (Yaponiya), Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti va Toshkent davlat transport universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahonda harakatlanuvchi tarkib asinxron dvigatellarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirish, konstruksiyalarini takomillashtirishga qaratilgan muhim nazariy va amaliy tadqiqotlar taniqli xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan, jumladan: A.S. Girnik, O.L. Rapoport, I.P. Kopilov, P.S. Dzen, G.Ya. Shkilko, Y.B. Danilyevich, E.G. Kasharskiy, A.I. Zaysev, D.I. Bannov, A.B. Vinogradov, A.V. Brajnikov, V.I. Pantelev, N.N. Dovjenko, G.Ya. Shkilko, E.M. Novoselov, V.A. Savelyev, I. Tan, K. Zhang, X. Jiang, Y. Wu, S. Chakroune va boshqa yetuk olimlar shug'ullanishgan.

Respublikamizda harakatlanuvchi tarkib elektr dvigatellarining mustahkamliligi, chidamliligi, ishonchliligi hamda foydalanish samaradorligini oshirishga A.D. Glushenko, B.I. Vilkevich., V.I. Yushko., S.F. Amirov, G.A. Xromova, Y.O. Ro'zmetov, R.V. Raximov, D.O. Radjibayev, O.T. Boltayev, U.T. Berdiyev, Sh.S. Fayzibayev, N.B. Pirmatov, O.R. Xamidov., O'.I. Safarov, Jamilov Sh.F., Ergashev O.E, Sh.I. Mamayev kabi olimlar va boshqa olimlar o'z hissalarini qo'shishgan. Shu bilan birga izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zgaruvchan tok tortuv elektr dvigatellarining texnik holati baholashni takomillashtirish orqali ularning ishonchliligini oshirish, ta'mirlararo ishlash muddatini uzaytirish, diagnostika jarayonlariga yangi texnologiyalar xususan sun'iy neyron tarmoqlarni joriy qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib

borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan 2023-yilning 23-yanvardagi "Transport sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion izlanish va tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini joriy etish bo'yicha faoliyat tahlili" 5-sonli va "O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2024-yil 8-iyundagi 175-sonli "Yangi ta'mir turlarini o'zlashtirish va modernizatsiyalash to'g'risida"gi buyrug'i talabi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** - lokomotivlar o'zgaruvchan tok tortuv elektr dvigatellarini sun'iy neyron tarmoqlar orqali texnik holatini baholashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'zgaruvchan tok tortuv elektr dvigatellarning texnik holatini baholash bo'yicha mavjud usullarni, xususan neyron tarmoqlar asosida yaratilgan yondashuvlarni o'rganish va tahlil qilish;

asinxron tortuv elektr dvigateli asosiy nosozliklarining magnit parametrlariga bog'liqligi hamda ularning diagnostika belgilari imitatsion modelini ishlab chiqish;

mahalliy sharoitda o'zgaruvchan tok tortuv elektr dvigatellarning stator va rotor oraligidagi havo bo'shlig'i magnit induksiyasini real vaqtda aniqlash imkonini beruvchi diagnostika qurilmasini ishlab chiqish;

dvigatelning texnik holatini baholash uchun optimal neyron tarmoq modelini yaratish va uni o'qitish algoritmini ishlab chiqish;

dvigatel magnit parametrlari bo'yicha tajriba natijalarini yig'ish, ularni qayta ishlash va neyron tarmoqda o'qitish;

ishlab chiqilgan neyron tarmoq asosidagi diagnostika tizimining aniqligi, tezkorligi va amaliy qo'llash imkoniyatlarini baholash;

natijalar asosida lokomotivlar o'zgaruvchan tok tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini monitoring qilish va diagnostika qilish bo'yicha metodika ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida lokomotivlarning asinxron tortuv elektr dvigatellari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** lokomotivlarning asinxron tortuv elektr dvigatellarining texnik holati tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida asinxron tortuv elektr dvigatellarining nosozliklarini statistik tahlil qilish, nazariy hisob-kitoblar, matematik va kompyuterli modellashtirish usullari, elektromagnit induksiya qonunlari, eksperimental tadqiqotlar kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lokomotiv asinxron tortuv elektr dvigatellarining ishlash jarayonida stator va rotor oralig'idagi havo bo'shlig'i magnit induksiyasidagi o'zgarishlarni baholash imkonini beruvchi imitatsion modeli ishlab chiqilgan;

ilk bor zamonaviy avtomatik boshqarish tizimlari ma'lumotlari asosida lokomotivlarning asinxron tortuv elektr dvigatellari texnik holatini baholash imkonini beruvchi intellektual diagnostika usuli ishlab chiqilgan;

mahalliy sharoitda lokomotiv asinxron tortuv elektr dvigatellarining stator va rotor oralig'idagi havo bo'shlig'i magnit induksiyasini real vaqtda aniqlash imkonini beruvchi diagnostika qurilmasi ishlab chiqilgan;

asinxron tortuv elektr dvigatellarining havo oralig'idagi magnit maydonning o'zgarish qonuniyatlarini inobatga olgan holda texnik holatini baholash imkonini beruvchi algoritm va uslubiyot ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini baholash uchun magnit parametrlar asosida diagnostika qilish metodikasi ishlab chiqilgan va uning amaliy samaradorligi tajriba natijalari bilan tasdiqlangan.

sun'iy neyron tarmoqlar asosida ishlab chiqilgan diagnostika modeli real o'lchov ma'lumotlari asosida sinovdan o'tkazilib, dvigatelning sog'lom va nosoz holatlarini yuqori aniqlik bilan farqlash imkoniyatini yaratilgan.

laboratoriya sharoitida yig'ilgan magnit induksiya signallari ma'lumotlar bazasi kelgusida ilmiy tadqiqotlar, diagnostika tizimlarini takomillashtirish hamda o'quv jarayonida foydalanish uchun amaliy manba sifatida shakllantirilgan.

portativ teslametr yordamida magnit induksiya signallari yig'ilib, ma'lumotlar bazasi shakllantirildi va neyron tarmoqda o'qitish uchun qo'llanildi.

diagnostika tizimi yuqori aniqlik va tezkor ishlash ko'rsatkichlarini namoyish etdi hamda real sharoitlarda samarali qo'llash mumkinligi tasdiqlangan.

amaliy samaradorligi tajriba-sinovlarda tasdiqlanib monitoring va erta diagnostika bo'yicha metodika ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ushbu tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy modellar, matematik hisob-kitoblar va amaliy tajribalar o'zaro solishtirilishi bilan ta'minlandi. Asinxron tortuv elektr dvigatellarida magnit parametrlar asosida nosozliklarni aniqlash eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslanib, yuqori moslikka erishildi. Neyron tarmoqlar yordamida modellashtirish natijalarining qayta takrorlanishi va turli sharoitlarda olingan ma'lumotlarning yaqinligi barqarorlikni ko'rsatdi. Aniqlik darajasi, xatolik ko'rsatkichlari va konfuzion matritsalar bilan tekshiruv natijalari ham nazariy va amaliy natijalar mosligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asinxron tortuv elektr dvigatellarining magnit parametrlariga asoslangan texnik holatini baholashning yangi yondashuvi ishlab chiqilganligi elektrodinamika nazariyasi va amaliyoti rivojiga qo'shgan hissasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lokomotiv asinxron tortuv elektr dvigatellarining stator va rotor oralig'idagi havo bo'shlig'i magnit induksiyasini real vaqtda aniqlash imkonini beruvchi diagnostika qurilmasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Lokomotivlarning o'zgaruvchan tok elektr dvigatellarini sun'iy neyron tarmoqlarini qo'llash orqali texnik hoatini baholash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalar asosida:

asinxron tortuv elektr dvigatellari texnik holatini baholash imkonini beruvchi intellektual diagnostika usuli "O'zbekiston" lokomotiv deposiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 16-oktyabrdagi 4/E1484-sonli ma'lumotnomasi). Natijada asinxron tortuv elektr dvigatellarining nosozliklarini oldindan baholash imkonini bergan.

asinxron tortuv elektr dvigatellarining stator va rotor oralig'idagi havo bo'shlig'i magnit induksiyasini real vaqtda aniqlash imkonini beruvchi diagnostika qurilmasi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ lokomotiv depolariga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 16-oktyabrdagi 4/E1484-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 856 321 000 (sakkiz yuz ellik olti million uch yuz yigirma bir ming) so'mni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy anjumanlarda, shu jumladan 1 ta Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslangan ilmiy anjumanda, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida bayon etilgan va muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, shu jumladan 2 ta xalqaro va 6 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlar, 6 ta EHM uchun dasturiy mahsulotlar ro'yxatga olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, qo'yiladigan masalaning holati batafsil yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyektini va predmetini tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ishonchliligi asoslangan, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish to'g'risida ma'lumot berilgan va shuningdek, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Dissertatsiya ishining "**Lokomotivlar o'zgaruvchan tok tortuv elektr dvigatellari tahlili va tadqiqot vazifasining qo'yilishi**" nomli birinchi bobida

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ lokomotiv parkida foydalanilayotgan lokomotivlarning asinxron elektr dvigatellari hamda uning nosozliklari sabablarining tahlili keltirib o‘tilgan.


O‘zgaruvchan tokda ishlaydigan tortuv asinxron elektr dvigatellari elektrovozlarda juda keng qo‘llaniladi, chunki ular samarali va ishonchli hisoblanadi. Ularning elektrovozlarda bajaradigan asosiy vazifasi lokomotivning tortuvida asosiy harakatga keltiruvchi agregat xisoblanadi.

Amaliyotda keng qo‘llanilayotgan turli nazorat va monitoring metodlarini o‘rganish, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish, afzallik va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, qaysi usul qaysi sharoitda samarali qo‘llanishini baholash dolzarb masaladir. Bu jarayonda vibratsion tahlil, elektr signallari asosida diagnostika, magnit parametrlar, issiqlik va akustik usullarning qiyosiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ga qarashli bo‘lgan lokomotivlarda mavjud bo‘lgan asinxron tortuv elektr dvigatellarda turli nosozliklar kuzatiladi. Ushbu nosozliklar quyidagicha talqin qilinadi va uchta asosiy nosozliklar tahlil qilingan (1-rasm).

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asinxron tortuv elektr dvigatellarida uchraydigan asosiy nosozliklar quyidagilar:

eksentrisitet (26%), rotor sterjenlarining uzilishi (28%) va mexanik nosozliklar (23%). Eksentrisitet rotor va stator markazlarining mos kelmasligi natijasida havo oralig‘ida magnit induksiyasining notekis taqsimlanishiga va qo‘shimcha radial kuchlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Rotor sterjenlarining uzilishi esa asosan yuqori harorat ta‘sirida sodir bo‘lib, natijada elektr hamda mexanik muammolarni kuchaytiradi. Mexanik nosozliklar esa, odatda, podshipniklarning eskirishi yoki noto‘g‘ri ekspluatatsiya tufayli yuzaga kelib, dvigatel samaradorligini sezilarli pasaytiradi.



**1 – rasm. O‘zgaruvchan tok tortuv asinxron dvigatellardagi nosozliklar (%)**

Dissertatsiya ishining “**Elektr dvigatellarning texnik diagnostika usullarini takomillashtirishda neyron tarmoqlar texnologiyalari va matematik modellar**” nomli ikkinchi bobida lokomotivlarning o‘zgaruvchan tokda ishlaydigan asinxron tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini baholash, elektr dvigatellarda samarali diagnostika qilish uchun nuqsonlarga sezgir parametrlarni tanlash, elektr, magnit, mexanik va issiqlik kattaliklari ichida ayniqsa magnit induksiya eng informatsion bo‘lib, rotor va statoridagi kichik o‘zgarishlarni ham aks ettiradi. Ikkinchi bobda ushbu parametrlar matematik modellar asosida tahlil qilinib, sun‘iy neyron tarmoqlar yordamida avtomatlashtirilgan diagnostika tizimi tadqiq etilgan.

Elektr dvigatellarning diagnostikasida magnitodinamik usul havo oralig‘idagi magnit maydon induksiyasining o‘zgarishlarini tahlil qilish orqali uch asosiy nosozlikni aniqlashi mumkin. Ushbu usulning har bir nosozlikka nisbatan harakterlovchi xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz:

**Podshipnikdagi nosozliklar.** Magnit maydonga ta’siri: Podshipnikning nosozligi, yetarli darajada moylanmagani natijasida rotor va stator orasidagi mexanik beqarorlik yuzaga keladi. Bu havo oralig‘ida magnit induksiya notekis taqsimlanishiga olib keladi. Magnit induksiyada past chastotali garmonikalar paydo bo‘ladi. Bu rotorning ozgina chayqalishini ko‘rsatadi. Magnit maydonning past chastotali o‘zgarishlarini diagnostika qilish orqali aniqlanadi.

**Eksentrisitet.** Eksentrisitet rotor o‘qi va stator o‘qi orasidagi geometrik nomutanosiblik natijasida yuzaga keladi. Ular aralash, dinamik va statika eksentrisitetga bo‘linadi. Bu havo oralig‘ining qalinligi notekis bo‘lishiga olib keladi. Magnit induksiyada muayyan yuqori garmonikalar paydo bo‘ladi va ularning chastotasi rotorning aylanish chastotasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Magnit maydonning asimmetrik taqsimlanishi va yuqori chastotali garmonikalar mavjudligi orqali aniqlanadi.


**Rotordagi yoriqlar.** Rotor yoriqlari magnit maydonning yo‘nalishini va o‘tish yo‘llarini buzadi, bu esa magnit induksiya kuchlanishining notekis o‘zgarishiga olib keladi. Induksiyada modulyatsiyalangan yuqori chastotali signal va dinamik garmonikalar paydo bo‘ladi. Magnit maydon induksiyasining yuqori chastotali garmonikalari va signalning o‘zgarish intensivligi orqali diagnostika qilinadi.



**2 – rasm. ATED texnik holatini baholash ketma-ketligi**

Sun'iy neyron tarmoqlari (SNT) - bu neyron tarmoqlar nazariyasi va amaliyoti sohasi bo'lib, unda signallarni qayta ishlash texnika tizimining neyronlarida sodir bo'ladigan hodisalarni tadqiq qiluvchi formulalar va algoritmlar bo'yicha amalga oshiriladi (2-rasm).

Neyron tarmoqlar ichida eng ko'p ishlatiladigan modellardan biri MLP (Multi-Layer Perceptron) (3-rasm) bo'lib, u oddiy arxitekturaga ega va kirish ma'lumotlarini to'liq bog'langan qatlamlar orqali qayta ishlaydi. MLP asosan jadval ko'rinishidagi ma'lumotlar, regressiya va klassifikatsiya vazifalarida samarali hisoblanadi.



**3-rasm. Ko'p qatlamli perseptron sun'iy neyron tarmoq modeli:**  $x_1, x_2, \dots, x_n$  kirish signallari,  $z_1, z_2, \dots, z_{d1}$  birinchi yashirin qatlam funksiyasi,  $y_1$  va  $y_2$  . chiqish signallari (soz yoki nosoz)

Asosi – oddiy to'liq bog'langan qatlamlar (fully-connected layers) matematik modeli: Kirish:  $x \in \mathbb{R}^n$

Birinchi yashirin qatlam:

$$z^{(1)} = f(W^{(1)}x + b^{(1)}),$$

Ikkinchi yashirin qatlam:

$$z^{(2)} = f(W^{(2)}z^{(1)} + b^{(2)}),$$

Chiqish:

$$y = g(W^{(3)}z^{(2)} + b^{(3)}),$$

bu yerda  $W^{(i)}$  – og'irliklar matritsasi (weight),  $b^{(i)}$  – siljish (bias),  $f(\cdot)$  – aktivatsiya funksiyasi (masalan, ReLU),  $g(\cdot)$  – chiqish funksiyasi (masalan, softmax).

Murakkabroq ma'lumot turlarini, xususan fazoviy struktura va tasvirlarni tahlil qilishda esa CNN (Convolutional Neural Network) keng qo'llanadi. CNN konvolyutsion qatlamlar orqali xususiyatlarni ajratib oladi va u rasm, signal yoki magnit maydon o'lchovlari kabi ma'lumotlarni yuqori aniqlik bilan qayta ishlash imkonini beradi.

Asosi – konvolyutsiya (filterlash) operatsiyasi matematik modeli 1D signal uchun:

$$h_i^{(k)} = f\left(\sum_{j=1}^m w_j^{(k)} \cdot x_{i+j-1} + b^{(k)}\right),$$

2D rasm uchun (kanallik konvolyutsiya):

$$h_{ij}^{(k)} = f\left(\sum_{m=1}^M \sum_{p=1}^P \sum_{q=1}^Q w_{p,q,m}^{(k)} \cdot x_{i+p,j+q,m} + b^{(k)}\right);$$

bu yerda:  $w_{p,q,m}^{(k)}$  – konvolyutsion filtrning og‘irliklari;  $b^{(k)}$  – bias;  $f(\cdot)$  – aktivatsiya funksiyasi (ReLU, sigmoid va h.k.).

Pooling qatlam esa:

$$h_{i,j} = \max_{(p,l) \in R} x_{i+p,j+q} \text{ ya'ni filtr ichidagi maksimal qiymat olinadi.}$$

Ketma-ketlikka ega bo‘lgan vaqtli jarayonlarni modellashtirish uchun esa RNN (Recurrent Neural Network) asosiy vositalardan biridir. RNN avvalgi vaqt bosqichidagi yashirin holatni keyingisiga uzatish orqali vaqtli bog‘liqliklarni hisobga oladi. Shu sababli, u elektr dvigatellarning vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi signallarini, masalan, tebranish, tok yoki magnit induksiya spektrlarini tahlil qilishda qo‘llanishi mumkin. RNN (Recurrent Neural Network) – matematik modeli Har bir vaqt  $t$  da: Yashirin holat yangilanishi:

$$h_{(t)} = f(W_h h_{t-1} + W_x x_t + b_h),$$

Chiqish:

$$y_{(t)} = g(W_y h_t + b_y);$$

bu yerda  $x_t$  – vaqt  $t$  dagi kirish,  $h_t$  – yashirin holat (memory),  $W_x, W_h, W_y$  – og‘irliklar,  $f(\cdot)$  – aktivatsiya (tanh yoki ReLU),  $g(\cdot)$  – chiqish funksiyasi (softmax, sigmoid).

RNNning qolganlaridan farqi shuku har bir vaqt qadamida avvalgi holat  $h_{t-1}$  xotira sifatida qayta ishlatiladi. Bu uni vaqtli ketma-ketlik (masalan, dvigatel vibratsiya signali yoki tok spektri)ni model qilishga mos qiladi.

Shunday qilib, MLP, CNN va RNN modellarining o‘ziga xos afzalliklari mavjud bo‘lib, ular birgalikda qo‘llanganda elektr dvigatellarining turli nosozliklarini erta aniqlash va texnik holatini baholash imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1TB 2KF2624–3EA00 tipidagi Siemens tortuv elektr dvigatelinig nosozliklari tufayli yuzaga keladigan magnit induksiya o‘zgarishlari dvigatelnig texnik holatini baholashda muhim ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, eksentrisitet, podshipnik yoki rotor sterjenlarida nosozliklar paydo bo‘lganda, magnit maydonning notekis taqsimlanishi kuzatiladi va bu neyron tarmoq modeli yordamida aniq diagnostika qilish imkonini beradi.

Shu sababli, magnit induksiya parametrlari asosida olib borilgan tahlillar mazkur motorning samaradorligini baholash, nosozliklarning oldini olish va ishlash davrini uzaytirishda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega natijalarni taqdim etadi.

Mazkur ilmiy natijalar neyron tarmoqlar asosida magnit induksiya parametrlari orqali texnik holatni baholash usullarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki rotor panjarasi materiali tufayli yuzaga keladigan magnit jarayonlar farqlari neyron model yordamida aniqlanib, motorning texnik diagnostikasini yuqori aniqlik bilan amalga oshirish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining **“Asinxron dvigatellarning nosozliklardagi magnit jarayonlari va ularni neyron tarmoqlar orqali modellashtirish usuli”** nomli uchinchi bobida asinxron dvigatellarda uchraydigan nosozliklar ta’sirida magnit

jarayonlarning o'zgarishi tahlil qilinadi. Eksentrisitet, rotor panjarasidagi yoriqlar va podshipnik nosozliklari havo oralig'idagi magnit maydonning notekis taqsimlanishiga hamda elektromagnit moment pulsatsiyalariga sabab bo'ladi. Shu bois magnit parametrlar diagnostika uchun asosiy mezon sifatida tanlanadi. Ularning spektral xususiyatlari neyron tarmoqlar yordamida qayta ishlanib, dvigatelning texnik holatini erta va avtomatlashtirilgan tarzda baholash imkoniyati yaratiladi.

Elektr mashinasining havo bo'shlig'ida induksiyani taqsimlashning ko'rib chiqilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda, qutb bo'linishining hisoblangan maydoni

$$S_{\delta} = a_{\delta} \tau l_{\delta}$$

U holda oraliqdagi induksiya

$$B_{\delta} = \frac{\Phi}{S_{\delta}} = \frac{\Phi}{a_{\delta} \tau l_{\delta}}$$

Havo oralig'ining o'ziga xos magnit o'tkazuvchanligi usuliga ko'ra, mashinaning magnit davri to'yinmaganligini va magnit o'takzichlarning magnit kuchlanishini havo oralig'ining magnit kuchlanishiga nisbatan e'tiborsiz qoldirish mumkin ( $\mu_{\text{CT}} = \infty$ ), havo oralig'idagi maydon shu yerdagi magnit kuchlanganlik va oraliqning solishtirma magnit o'tkazuvchanligi ko'paytmasi bilan aniqlanadi [5]:

$$\sum B_{\delta} = \sum F_{\delta} \sum \lambda_{\delta} = \left( \sum F_{\delta_s} + \sum F_{\delta_r} \right) \sum \lambda_{\delta} = \sum F_{\delta_s} \sum \lambda_{\delta} + \sum F_{\delta_r} \sum \lambda_{\delta}$$

Rotorning eksentrisiteti mavjud bo'lgandagi havo oralig'i statik va dinamik eksentrisitet mavjud bo'lganda rotor yuzasi o'qining siljishi tadqiq etilgan.  $\bar{\varepsilon}$  va  $\varepsilon'$  vektorlar rotor o'qining nisbiy birliklardagi vektorlariga mos keladi,  $\bar{\varepsilon}_{\Sigma}$  . vektori esa rotorning oniy to'liq eksentrisitetidir.

Oniy eksentrisitet yig'indisi va rotor siljishining yo'nalishi

$$\bar{\varepsilon}_{\Sigma} = \sqrt{(\varepsilon \cos \varphi_{\varepsilon} + \varepsilon' \cos \varphi_{\varepsilon}')^2 + (\varepsilon \sin \varphi_{\varepsilon} + \varepsilon' \sin \varphi_{\varepsilon}')^2},$$

$$\varphi_{\varepsilon \Sigma} = \text{arctg} \frac{\varepsilon \sin \varphi_{\varepsilon} + \varepsilon' \sin \varphi_{\varepsilon}'}{\varepsilon \cos \varphi_{\varepsilon} + \varepsilon' \cos \varphi_{\varepsilon}'};$$

Tadqiqot jarayonida asinxron tortuv elektr dvigatellarida uchraydigan asosiy nosozliklar – eksentrisitet, rotor panjarasidagi yoriqlar, hamda podshipnikdagi nosozliklar – ularning barchasi havo oralig'idagi magnit induksiya taqsimotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Har bir nosozlik alohida ko'rib chiqilganda magnit induksiya B, havo oralig'i  $\delta$ , rotor toki  $I_2$  va elektromagnit moment M o'zgarishlari turlicha ifodalanadi. Shu bilan birga, umumlashtirilgan holda quyidagi bog'lanish formulasi taklif etilishi mumkin:

$$B(\theta, t) = \frac{\mu_0 A(\theta, t) C(\theta)}{\delta_0 + \varepsilon_e(\theta, t)} + B_{nl}(\theta, t).$$

bu yerda  $B(\theta, t)$  — magnit induksiya lokal qiymati; funksion, birlik: tesla (T).

$\theta$ — aylana bo'yicha burchak koordinata (rad yoki °); pozitsiyaviy argument.  $A(\theta, t)$  — chiziqli tok yuklamasi, A/m; odatda stator fazalari va tok amplitudalaridan olinadi.

$\delta_0$  — o‘rtacha havo oralig‘i (mean air-gap), birlik: metr (m).  $\varepsilon_e(\theta, t)$  — eksentrisitetdan kelib chiqadigan havo oralig‘i modulyatsiyasi

$$B(\theta, t) = f_{SNN} \left( \delta(\theta, t) A(\theta, t), i_2(\theta, t), M(t), FFT_f, \dots; w \right),$$

bu yerda  $f_{SNN}$  — SNN (sun‘iy neyron tarmog‘i) ning funkcionalligi; kirish  $\rightarrow$  chiqishni xarakterlaydi (arkitekturaga bog‘liq: MLP/CNN/ReLU va boshqalar).

$x(\theta, t)$  — kirish xususiyatlarining vektori: misol uchun FFT- Signalni vaqt sohasidan chastota sohasiga o‘tkazadi.

$$[\delta, A, \Re(i_2), \Im(i_2), M, FFT_{amp}, T, S, \dots],$$

Yo‘qotish funksiyasi va giperparamterlar

$$L(w) = aL_{reg} bL_{reg} + gR(w);$$


Berilgan ifoda neyron tarmoqni o‘qitishda qo‘llaniladigan umumiy yo‘qotish funksiyasining (loss function) tarkibini bildiradi. Yo‘qotish funksiyasi bir nechta mustaqil komponentlardan tashkil topib, har biri modelning ma‘lum xususiyatini nazorat qiladi.

bu yerda  $L(w)$ —modelning umumiy yo‘qotish funksiyasi, ya‘ni og‘irliklar  $w$  uchun baholangan yo‘qotish qiymati;  $\alpha, \beta, \gamma$  tegishli komponentlarning ulushini belgilovchi ijobiy og‘irlik koeffitsiyentlari;  $L_{reg}$ —regularizatsiya yo‘qotishi bo‘lib, u modelning haddan tashqari moslashib ketishini (overfitting) oldini olishga xizmat qiladi;  $R(w)$ —og‘irliklarga nisbatan qo‘shimcha jazolovchi funksiya (penalty function) bo‘lib, modelning murakkabligi yoki parametrlarining qiymatini cheklash uchun qo‘llanadi.


Quyidagi Continuous powergui – doimiy quvvat manbai, 50 Hz chastota asos qilib olingan bo‘lib, stator va rotor qarshiliklari ( $R_s, R_r$ ) hamda ularning induktivliklari ( $L_s, L_r$ ) kiritilgan.  $L_m$ —magnitlanish induktivligi,  $p$ —juft qutblar soni,  $J$  esa inersiya momentini bildiradi. Umumiy stator va rotor induktivligi ( $L_s, L_r$ ) shu qiymatlar asosida hisoblangan. Shuningdek, magnit bog‘lanish koeffitsienti ( $K_r$ ), ekvivalent qarshilik ( $R_e$ ) va ekvivalent induktivlik ( $L_e$ ) aniqlangan. Modelda kuchlanishning amplitudasi ( $U_{amp}$ ) va rotor vaqt konstantasiga oid ko‘rsatkich ( $A_r$ ) ham hisoblab chiqilgan (4-rasm).

Asinxron dvigatelning magnit jarayonlarini tahlil qilishda MATLAB/Simulink dasturi asosida kompyuter modeli tuzildi (4 – rasm). Modelda dvigatelning elektr va magnit tenglamalari hisobga olingan holda, normal (soz) holatda ishlash jayoni imitatsiya qilindi (5-rasm). Bu orqali dvigatelning magnit induksiya o‘zgarishi, moment va tok grafigi hamda boshqa elektromagnit ko‘rsatkichlar kuzatildi (6-rasm).


a)




b)



4 – rasm. Matlab simulink dasturida ta'minotida tortuv asinxron elektr dvigatellardagi nosozliklarini aniqlash tizimining immitatsion modeli  
 a) asosiy blok b) Klark o'zgartgichi



**5 – rasm. Tortish karakteristikalarini dvigatel soz holatdagi ko'rsatkichlari**




**6 – rasm. Dvigatel nosoz holatdagi tortish xarakteristikasining o'zgarishi**

Yuqoridagi parametrlar MATLAB/Simulink muhitida asinxron dvigatelning soz holatdagi imitatsion modelini qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu imitatsion model yordamida asinxron tortuv elektr dvigateldagi rotor soz va nosozlik holatdagi tortish karakteristikalarining o'zgarishi taqqoslash ko'rsatilgan.

Dissertatsiya ishining **“Asinxron dvigatellarni magnitodinamik usulda nosozliklarni diagnostika qilish va neyron tarmoqlarni qo'llash”** nomli to'rtinchi bobida asinxron tortuv elektr dvigatelning asosiy uch nosozligi bo'yicha texnik holatini baholash metodikasi ishlab chiqilgan va asoslangan mezonlar taqdim etilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida asinxron tortuv dvigatellarining havo oralig'ida magnit induksiyaning o'lchash uchun Arduino mikrokontrolleri, Hall datchigi, LCD indikator va WiFi moduli asosida portativ teslametr prototipi ishlab chiqilgan (7-rasm). Qurilma laboratoriya va amaliy sinovlarda tekshirilib, magnit induksiya o'zgarishlarini real vaqt rejimida ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Teslametr yordamida rotor yoriqlari, eksentrisitet va boshqa nosozliklarni magnit parametrlar bo'yicha aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot doirasida olingan ma'lumotlarni yig'ish va uzatishni avtomatlashtirish maqsadida teslametrga Wi-Fi modul o'rnatilib, o'lchov qiymatlari real vaqtda TCP/IP tarmog'i orqali markaziy serverning ko'rsatilgan IP-manziliga uzatildi. Har bir o'lchov paketida vaqt belgisi, sensordan olingan xom qiymatlar va mos keluvchi identifikator JSON formatida shakllantirilib, HTTP POST so'rovi yoki UDP paketlari orqali serverga jo'natildi. Ushbu yechim sinov jarayonlarida ma'lumotlarni markaziy omborlashtirish va

keyingi tahlil (analog tahlil, neyron tarmoqni baholash) uchun qulay infratuzilma ta'minladi.





**7 – rasm. Teslametrning ichki tuzilishi (sxemasi)**

Tadqiqot doirasida yaratilgan teslametr qurilmasi (7-rasm) o'zining imkoniyatlari bilan mavjud xorijiy analoglardan sezilarli darajada ustunlik qiladi. Avvalo, qurilma havo oralig'idagi magnit induksiyani real vaqt rejimida aniqlik bilan o'lchash imkoniyatini beradi. Bu esa tortuv elektr dvigatellarida yuzaga keladigan elektromagnit jarayonlarni bevosita kuzatish va ularni aniq baholash imkonini yaratadi.

Teslametr qurilmasining navbatdagi muhim xususiyati – u yig'ilgan magnit signallarni spektral tahlil qilish imkoniyatidir. Bunday tahlil yordamida rotor panjarasidagi yoriqlar, eksentrisitet yoki podshipnik nosozliklari kabi murakkab holatlarning elektromagnit belgilarini erta aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa dvigatel nosozliklarini dastlabki bosqichdayoq aniqlash va samarali profilaktika choralarini ko'rishga zamin yaratadi.

Qurilma imkoniyatlari faqatgina o'lchash bilan cheklanmaydi. U sun'iy neyron tarmoqlar bilan integratsiya qilingan holda ishlashi mumkin. Bu yondashuv yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtiradi, diagnostika aniqligini oshiradi hamda kelgusidagi nosozliklarni ishonchli bashorat qilish imkoniyatini beradi. Natijada texnik xizmat ko'rsatish jarayoni zamonaviy intellektual tizim darajasiga ko'tariladi (8-rasm).

Amaliy nuqtayi nazardan, teslametr qurilmasining portativligi, arzonligi va qulayligi alohida ahamiyat kasb etadi. Qurilma ixcham bo'lgani bois uni nafaqat laboratoriya sharoitida, balki lokomotiv deposida ham bevosita qo'llash mumkin. Xorijiy analoglarga nisbatan ishlab chiqarish va ekspluatatsiya xarajatlari ancha past bo'lishiga qaramay, olingan natijalar yuqori darajada aniqligi bilan ajralib turadi.



**8-rasm. Neyron tarmoq orqali o‘qitish natijasi**

Shuningdek, teslametr qurilmasi ko‘p qirrali qo‘llanish imkoniyatiga ega. U nafaqat tortuv elektr dvigatellarida, balki sanoatning boshqa tarmoqlarida ishlatiladigan asinxron motorlarda ham samarali foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari, qurilma mavjud avtomatlashtirilgan monitoring tizimlariga ulanish imkoniyatiga ega bo‘lib, transport vositalarining texnik holatini uzoqdan nazorat qilish va onlayn diagnostika tizimini shakllantirishga zamin yaratadi.

Qurilma “O‘zbekiston” lokomotiv deposida tajribadan o‘tkazilib, asinxron tortuv elektr dvigatellarini diagnostika qilishda qo‘llash mumkinligi tasdiqlandi (8-rasm). Portativ teslametr signallari asosida spektral tahlil metodikasi ishlab chiqilib, sun’iy neyron tarmoqlar yordamida nosozliklarni bashoratlash imkoniyati ko‘rsatildi.

Ilmiy-texnikaviy jihatdan qurilma xorijiy teslametrlarga muqobil arzon variant sifatida ishlab chiqildi, real vaqt rejimida diagnostika qilish imkonini berdi hamda texnik xizmat ko‘rsatishda xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

1. Ushbu tadqiqot ishida asinxron tortuv elektr dvigatellarining texnik holatini magnit parametrlar asosida baholashning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi. Ayniqsa, havo oralig'idagi magnit maydon taqsimoti, rotor panjarasidagi yoriqlar, eksentrisitet va podshipnik nosozliklari magnitodinamik tahlil yordamida aniqlanib, ularning diagnostik belgilarini aniqlash imkoniyati ko'rsatib berildi.

2. Tadqiqot doirasida yaratilgan portativ teslametr qurilmasi laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida xususan "O'zbekiston" lokomotiv deposida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi. Qurilma magnit induksiya signalini real vaqt rejimida qayd etish, spektral tahlil qilish va sun'iy neyron tarmoqlar orqali nosozliklarni ishonchli bashoratlash imkonini berdi.

3. Olingan ilmiy natijalar magnit maydon parametrlariga asoslangan diagnostika yondashuvining samaradorligini isbotladi. Ayniqsa, sun'iy neyron tarmoqlarni qo'llash texnik holatni baholashda yuqori aniqlik beradi, diagnostika jarayonini avtomatlashtiradi va amaliyotga tezkor joriy etish imkonini yaratadi.

4. Amaliy nuqtayi nazardan ishlab chiqilgan teslametr qurilmasi xorijiy analoglarga nisbatan arzon, ixcham va samarali bo'lib, temir yo'l transportida qo'llanishi texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtiradi. Natijada nosozliklarni erta aniqlash, rejalashtirilmagan ta'mirlarni kamaytirish va ekspluatatsiya xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

5. Tadqiqotda ishlab chiqilgan usul va qurilma lokomotiv parkining ishonchliligi va xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi. Dvigatelning magnit jarayonlariga asoslangan diagnostika vositalari transportda avariya holatlarining oldini olish, lokomotiv brigadalarining mehnatini yengillashtirish va samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

6. Ilmiy va amaliy jihatdan olingan natijalar nafaqat temir yo'l transporti, balki boshqa sanoat tarmoqlarida qo'llaniladigan asinxron elektr dvigatellar uchun ham universalligi bilan ajralib turadi. Bu esa magistral va shahar elektr transportida, shuningdek, energetika va ishlab chiqarish sohalarida zamonaviy diagnostika tizimlarini yaratishga keng imkoniyat beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.15/31.08.2022.Т.73.07 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ВОХИДОВ МИРАБРОР ХУСАН УГЛИ**

**ОЦЕНКА ТЕХНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ТЯГОВЫХ  
ЭЛЕКТРОДВИГАТЕЛЕЙ ПЕРЕМЕННОГО ТОКА ЛОКОМОТИВОВ С  
ПРИМЕНЕНИЕМ ИСКУССТВЕННЫХ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ**

**05.08.05 – Подвижной состав железных дорог, тяга поездов и электрификация**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.2.PhD/Т5738.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Хамидов Отабек Рустамович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Пирматов Нурали Бердиёрович**  
доктор технических наук, профессор

**Курилкин Дмитрий Николаевич**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Андижанский государственный  
технический институт**

Защита диссертации состоится \_\_\_\_\_ 2025 г. \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.Т.73.07 при Ташкентском государственном транспортном университете. Адрес: 100167, Ташкент, Темирйулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54, e-mail: [tashiit\\_rektorat@mail.ru](mailto:tashiit_rektorat@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Ташкентском государственном транспортном университете (регистрационный номер – \_\_\_\_). Адрес: 100167, Ташкент, ул. Темирйулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66.

Автореферат диссертации разослан \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(протокол реестра № \_\_\_\_\_ от \_\_\_\_\_ 2025 года).

**Р.В. Рахимов**

Председатель Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., профессор

**Я.О. Рузметов**

Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., профессор

**Р.М. Мирсаатов**

Председатель Научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире особое внимание уделяется вопросам ускорения технологических и производственных процессов за счет внедрения современных методов диагностики с целью повышения надежности и эффективности асинхронных тяговых электродвигателей, применяемых в машиностроении, сельском хозяйстве и железнодорожном транспорте. По результатам исследований, проведенных в развитых странах, установлено, что 20-25% общих неисправностей локомотивов приходится на асинхронные тяговые электродвигатели. В связи с этим, в частности, оптимизация затрат на ремонт при эксплуатации локомотивов, обеспечение безопасности движения и повышение надежности и эксплуатационной эффективности электродвигателей определены как актуальные задачи. В решении этих задач важное значение имеет улучшение технико-экономических показателей асинхронных тяговых электродвигателей, совершенствование методов диагностики для оценки их технического состояния. Актуальность и востребованность темы диссертации.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на разработку различных научно-технических решений по теоретическим расчетам, разработке и совершенствованию современных методов экспериментальных исследований с целью эффективного использования железнодорожного транспорта. В этом направлении приоритетными считаются исследования по повышению коэффициента полезного действия, улучшению электродинамических и электромеханических характеристик, а также определению технического состояния на основе математического моделирования путем применения интеллектуальных технологий, основанных на искусственном интеллекте, для повышения эффективности работы асинхронных тяговых электродвигателей локомотивов. Вместе с тем, одной из актуальных задач является изучение зависимости показателей магнитного поля тяговых электродвигателей от дефектов, повышение эффективности их эксплуатации, а также разработка методов оценки их технического состояния с внедрением искусственного интеллекта для анализа электродинамических и электромеханических характеристик.

В нашей республике реализуются масштабные меры по развитию различных транспортных отраслей, в том числе по совершенствованию инфраструктуры железнодорожного транспорта, эффективному использованию существующего локомотивного парка, электрификации и совершенствованию существующих железнодорожных участков, и достигаются определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи, в том числе "Развитие единой транспортной системы с неразрывной связью всех видов транспорта." В процессе реализации этих задач важно разработать новые методы и технологии, которые служат для прогнозирования возможных

неисправностей в асинхронных тяговых электродвигателях современных электропоездов и направлены на совершенствование методов их диагностики.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-15 от 10 января 2024 года "О дополнительных мерах по дальнейшему повышению производственного и экспортного потенциала электротехнической промышленности," № ПП-454 от 24 декабря 2024 года "О мерах по развитию социальной и производственной инфраструктуры Республики Узбекистан в 2025-2027 годах," № ПП-20 от 22 января 2025 года "О дополнительных мерах по поднятию развития электротехнической промышленности на новый уровень," № ПП-99 от 24 января 2022 года "О мерах по созданию эффективной системы развития производства и расширения промышленной кооперации в республике," № ПП-329 от 10 октября 2023 года "О мерах по коренному реформированию сферы железнодорожного транспорта Республики Узбекистан" и № ПП-28 от 27 января 2025 года "О мерах по дальнейшему развитию транспортно-логистической системы Республики Узбекистан," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

